



Shomurotov Adil Qurbonboyevich

*Qoraqolpoqg'iston Respublikasi,
Amudaryo tumani havaskor shoiri*

OILA – MUQADDASDIR...

Oilada kam-ko'stlik bo'larkan, lekin,
Bir kun janjal bo'lsa, qirq kun
begona.

Quyoshi charog'on yurtimda, biling,
Oila – muqaddasdir, Vatan – yagona!

Kichkina mamlakat qonuni, muhri,
Podshohi, navkari – ota va ona.
Dillardan so'nmagay muhabbat nuri,
Oila – muqaddasdir, Vatan – yagona!

O'zbek oilasiga olis samodan,
Havas-la boqarkan o'zga sayyora.
Orzular lochini o'tsa ham oydan,
Oila – muqaddasdir, Vatan – yagona!

Shu aziz tuprog'im yuzida, ana,
Marvarid shodasi qilar tarona.
O, bunday obod yurt qayda bor yana,
Oila – muqaddasdir, Vatan – yagona!

Kelajak egasi – o'g'il-qizlarim,
Oliy dargohlarda bugun talaba.
Farzandlar kamolin ko'rajak yurtim,

Oila – muqaddasdir, Vatan – yagona!

Toshkent. 2014 yil.

Odil Shomurodov

Ajrashmanglar

Bitta mening kulguchim tillolarga
alishmas.

Tog'im eding dadajon, - Nega bugun
boshqacha?

Mahkam bosib bag'ringga yuzimga
gard yuqtirmas,

Orim eding onajon, - Nega bugun
boshqacha?

Bigiz qilar qo'llarin, maktabdagi
bolalar

Ukam bunga chidolmas, ular bilan
talashar.

Hayot asli teatr – rol o'ynarkan
odamlar,

Ota-ona rolini oldimizda o'ynanglar.

Ota-onam taqdirin o'ylay o'ylay
charchadim,

O'n uch yoshga kirmasdan yetmish
yoshga qaridim.

Dadajonim, dadam-yey, onajonim,
onam-yey,

Bag'rimizni qon qilib ajrashmanglar
jonim ey.



Odil Shomurodov

Toshkent, 2025 yil

**O'zbekiston – Yerning yuragi,
yoxud Samarqand sammiti**

Shu mitti yurakning duk-duklaridan,
Ona Yer mehr-la sandig'in ochar.
Samarqand kitobi bitiklaridan,
Yana bir saxifa nurlarin sochar.

Ibn Sino, Beruniy, Ulug'bek bunda,
Temurning maktabi, nurli ziyolar.
Ezgulik xayirin butun Jahonga,
Shu lahza, shu onda taratib turar.
Ilmi nur faylasuf Farobiy bobom,
Xorazmiy tog' erur – tunganmas
vulqon.
Navoiy bobomiz nazmga sarbon,
G'ururimsan, faxrimsan –
O'zbekiston!

Musulmon ellari – yakdil qozoni,
Hamdo'stlik yurtinning buyuk
istagi.

O, Samarqand shahrim, bomdod
azoni,

O'zbekiston manim - Yerning yuragi.

Jo'sh urib kuylayman shu vatan
madxin,

Bong urib uchaman koinot sari.

Men maqtanmay ayting, kim ham
maqtansin?

O'zbekiston manim - Yerning yuragi.

Odil Shomurodov

2025 yil, Toshkent

Yangi O'zbekiston

Yangi O'zbekiston – yangi atama,
Yurak tubidagi uyg'oq umidlar.
Ilm osmonida yuksak pog'ona,
Ajdodlar poyiga guldasta qo'yar.

Uyg'oning, uyg'oning Beruniy bobo,
Avlodlar quvonchi sig'mas dillarga.
Siz bitgan qomusiy jadvallar mana,
Ming yo'llik yo'l bosib keldi
bizlarga.

Ezgulik yo'lida sanchib ketilgan,
Sarbast minoralar qilichday turar.



Ona yer ko'ksidan ko'zgusin tutgan,
Maysalar moziyga salomin yo'llar.

G'am-qayg'u dardlaring qog'ozga
bitib,

Xavas-la boqarding qushlarga qarab.

Ilm-fan bog'ida nabirang tetik,

Qush kabi uchmoqda yulduzni
so'rab.

Dillarga zavq berib ko'zni quvnatar,

Qad rostlab bo'y cho'zgan shaharlar,
Kentlar.

Bog'larda sayr etib yigitlar, qizlar,

Buyuk cho'qqilardan ilxomin so'rar.

Siyohdon ishqida oltin qalamim,

Hali o'qilmagan kitoblar yozar.

Unda yozilajak sening orzuing,

Va sening iqboling. – azizim
Yoshlar.

Mavzusi, g'oyasi iymon, e'tiqod,
Borliqqa nur sochsin zarhal kitobing.

Vatanin bag'rida ko'z ochgan buloq,
Uchinchi Renessans sening qanoting.

Ko'zimga nur bo'lgay o'g'il-
qizlarim,

Jo'shqin hayotingiz kumush sayqali.

Armonsiz yumilsin mening
ko'zlarim,

Vaqt kelib jonimni so'rar mahali.

Yangi O'zbekiston, O'zbekistonim,

Yoshlaring shay turar, ko'kka
uchajak.

Ajdodlar merosi ma'rifat ilm,

Dunyo osmonida mash'al bo'lajak!

Odil Shomurodov, 2023 yil